

становиться более конкурентоспособным на рынке труда. Также благодаря наличию стандартов работники имеют возможность постоянно получать новые знания и навыки.

***Список использованной литературы:***

1. O‘z DSt 22483:2022 (ISO 22483:2020, MOD) «Туризм и сопутствующие услуги. Гостиницы. Требования к услугам»
2. O‘z DSt 3418:2019 «Туристские услуги. Общие требования к персоналу туроператоров и туррагентов»
3. O‘z DSt 3417:2019 «Туристские услуги. Общие требования к обслуживающему персоналу средств размещения»
4. O‘z DSt ISO 21102:2022 (ISO 21102:2020, IDT) «Приключенческий туризм. Лидеры. Компетентность персонала».

## **AHOLINING MOLIYAVIY SAVODLILIGI – OILA FAROVONLIGI ASOSI**

*Jiyanov Uktam*

*O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi*

*“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyyarat turizmi” kafedrasи katta o‘qituvchisi*

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichidagi global muammolar, zamonaviy tendensiyalar va o‘zgarishlar davlat va aholi uchun juda ko‘p turli xil muammolarni keltirib chiqaradigan bir qancha yangi va tushunish qiyin moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda aholining yetarli darajada ma’lumotga ega bo‘lmaganligi va moliya bozorlarida sodir bo‘layotgan jarayonlarga ishonchsizligi, o‘ziga xos moliyaviy munosabatlar va moliya tizimining asosiy tamoyillarini noto‘g‘ri tushunish bilan birlgilikda davlat, kichik va xususiy biznes, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda. Bu esa aholi daromadlari va farovonligi darajasini pasayishiga olib kelmoqda.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi moliya bozorlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, u, o‘z navbatida, aholining moliyaviy savodxonligining yuqori bo‘lishini talab etadi. Chunki aholi savodxonligi moliyaviy mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talabga ta’sir qiladi. Ushbu tizim barcha bo‘g‘inlarining oqilona va samarali faoliyat yuritishi butun aholi va bevosita muayyan oilaning farovonligini oshirish uchun asosdir. Shuning uchun ham aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish iqtisodiyotni tartibga solishning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi nafaqat yanada samarali ishlab chiqarish va moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, balki fuqarolarning ulardan qay darajada foydalanish imkoniyatiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Shu bois ham moliyaviy savodxonlikning yuqori darjasini nafaqat aholining ayrim guruhlarining turmush darajasini yaxshilanishiga olib keladi, balki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Moliyaviy savodxonlik tushunchasining mohiyati va ma’nosи bo‘yicha tadqiqotchilarning ko‘plab yondashuvlari mavjud (1-jadval).

### 1-jadval

#### **Moliyaviy savodxonlik tushunchasi mazmuniga tadqiqotchilarning yondashuvlari**

Nº	Tarkib	Mualliflik izohi
1.	Moliyaviy savodxonlik – fuqaroni moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida aktiv pozitsiyani egallash, jamiyatda o‘zini va oila a’zolarini moliyaviy farovonligini oshirish uchun zarur bo‘lgan bilimlar va ko‘nikmalar yig‘indisi [1].	Moliyaviy savodxonlik moliyaviy bozorlar faoliyati to‘g‘risidagi bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, yetarlicha keng bilim va ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Va bu bozorlardagi ko‘plab voqealar, muayyan sharoitlarga qarab, turlicha talqin qilinishi mumkin.
2.	Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsiy pulni boshqarish va o‘z qarorlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyati [3].	Moliyaviy savodxonlik nafaqat pulni boshqarish qobiliyatini, balki boshqa moliyaviy resurslarni ham o‘z ichiga oladi.
3.	Moliyaviy savodxonlik – bu insonning moliyaviy xulq-atvori sohasidagi bilim, ko‘nikma va munosabatlar yig‘indisi bo‘lib, farovonlik va hayot sifatini oshirishga olib keladi; u asosiy moliyaviy tushunchalarni tushunish darajasi, hayotiy jarayonlar va iqtisodiy sharoitlardagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda qisqa muddatli qarorlar va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish orqali shaxsiy moliyani boshqarish qobiliyatini ifodalaydi [4].	Juda keng qamrovli talqin. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, moliyaviy savodxonlikning yetarli darajasi mulkchilik shaklidan qat’i nazar, moliyaviy resurslardan foydalanish imkonini beradi. Eng katta iqtisodiy samara shaxsnинг va oilaning o‘z mablag‘laridan foydalanish natijasida olinishi mantiqan to‘g‘ri.
4.	Moliyaviy savodxonlik – bu moliyaviy bozorlar, ularning faoliyati va tartibga solish xususiyatlari, professional ishtirokchilar hamda ular taklif etayotgan moliyaviy vositalar, mahsulotlar va xizmatlar haqidagi bilimlar majmuasi [5].	Moliyaviy savodxonlikning yuqori darajasi ko‘p qirrali bilimlar bilan ajralib turadi, ammo moliyaviy bozorlar sohasidagi bilimlar bilan cheklanib qolmasligi kerak.
5.	Xalqaro amaliyotda moliyaviy savodxonlik g‘oyasi jismoniy shaxslarning o‘z mablag‘larini boshqarish va qisqa muddatli va uzoq muddatli samarali moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyati sifatida qabul qilinadi [6].	Moliyaviy savodxon shaxs mulkchilik shaklidan qat’i nazar, moliyaviy resurslarni samarali boshqara olishi kerak.
6.	Moliyaviy savodxonlik moliyaviy institutlar va ular taklif etayotgan mahsulotlar to‘g‘risidagi bilimlarni, shuningdek, zarurat tug‘ilganda ulardan foydalanish va o‘z harakatlarning oqibatlarini tushunish qobiliyatini anglatadi [7].	Bu atama ko‘proq moliyaviy bozorlarning faoliyati haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, moliyaviy savodxonlik barcha sohalarda keng bilimlarni tavsiflaydi.
7.	Moliyaviy savodxonlik – bu insonning ijtimoiy rivojlanishda investor sifatida ongli ravishda ishtirok etishi, moliyaviy vositalarni tanlashga oqilona va mas’uliyat bilan yondashish bilan daromad keltirishi yoki hech bo‘Imaganda bilim egasiga moliyaviy barqarorlikni ta’minalashi kerak bo‘lgan ajralmas qobiliyat [8].	Ushbu ta’rifda mamlakat fuqarolarining nafaqat shaxsiy, balki jamoat farovonligini ta’minalashda moliyaviy faolligi zarurligini ta’kidlaydi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, har doim ham insonning moliyaviy sohasidagi barcha qadamlari ongli ravishda amalga oshirilmaydi.
8.	Mualliflik ta’rifimizga ko‘ra, “moliyaviy savodxonlik” deganda bozor konyunkturasini to‘g‘ri baholash va maqbul qarorlarni qabul qilish imkonini beruvchi moliya sohasidagi bilim va ko‘nikmalarining zarur darajasi tushuniladi. Chunki asosiy moliyaviy tushunchalar haqida ma’lumotga ega bo‘lgan va undan amalda foydalana oladigan odam pulni malakali boshqarishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, daromad va xarajatlarni kuzatib borish, ortiqcha qarzlardan qochish, shaxsiy byudjetni rejalashtirish, jamg‘armalarni to‘plash va ularni daromad maqsadlarida investitsiyalash haqidagi bilimga ega bo‘lishi zarur bo‘ladi. Shuningdek, moliya institutlari taklif etayotgan yangi va murakkab mahsulotlarni ko‘rib chiqish, ularni ongli ravishda tanlash asosida sotib olish, shaxsiy jamg‘arma va moliyaviy vositalaridan samarali foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarini egallash ham talab etiladi.	Albatta, bunday bilim darajasini talab qilish juda qiyin, chunki iqtisodiy va ijtimoiy hayotning doimiy o‘zgarishi sharoitida shaxsiy o‘zini o‘zi takomillashtirish va bilim darajasi ustida ishlashning uzluksiz jarayoni zarur. Shuningdek, bu holatda ham inson turli omillar va hodisalar ta’sirida xato va noto‘g‘ri hisob-kitoblarga yo‘l qo‘yishi ham mumkin. Chunki ko‘rib chiqilayotgan shartlar va vaziyatlar tahlil omillarida axborotlarning to‘liqsizligi yoki amal qilish qonuniyatlarining bir-biridan farqi kuzatilishi mumkin. Bu esa moliyaviy qarorlar qabul qilishni murakkablashtiradi. Ammo, umuman olganda, ko‘rib chiqilayotgan moliyaviy savodxonlikning keng ma’nodagi ta’rifi sifatida taklif etish mumkin.

Xususan, iste'molchilarning ma'lumotlilik va moliyaviy savodxonlik darajasi mahsulot sifatiga bo'lgan talabning oshishiga, yetkazib beruvchilar va sotuvchilar o'rtasida raqobatning kuchayishiga, narxlarning pasayishiga va natijada bozorni samarali tartibga solinishi va inflyatsiya darajasini barqarorligiga olib keladi. Moliyaviy bilimlarning pastligi moliyaviy firibgarliklar sabab shaxsiy daromadlarning yo'qotilishi, korxonalarining bankrotligidan tortib moliyaviy zaiflik xavfigacha bo'lgan salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Natijada shaxs yoki oilada katta miqdordagi qarzlar va ba'zi ijtimoiy-psixologik muammolarini yuzaga keltiradi, masalan, depressiya, erta qarish holatlari, o'z joniga qasd qilishga moyilliklar kabi.

Yuqoridagi ta'riflarning aksariyati aniq sotsiologik tadqiqotlar muammolarini hal qilish uchun taklif qilingan va shuning uchun universal, deb da'vo qilinmaydi. Bu esa "moliyaviy savodxonlik"ni yagona ta'rif sifatida talqin qilishga shoshilinch ehtiyoj yo'qligini bildiradi. Chunki oila hayoti davomida duch keladigan real hayotiy vaziyatlarning xilma-xilligi bilan olingan bilim, ko'nikma va malakalarning xilma-xilligini birlashtirish qiyin.

Demak, "aholining moliyaviy savodxonligi" deganda moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozoridagi shunday oqilona, mazmunli, o'ylangan va maqsadli xatti-harakatlarni tushunishimiz mumkinki, bunda shaxs hozirgi vaqtida o'zining moddiy boyligini oshirishga va keljakda o'zining va oilasining moliyaviy farovonligini ta'minlashga intiladi. Ya'ni moliyaviy savodxonlikni iqtisodiy va moliyaviy faoliyatning qoidalari va qonuniyatları, asosiy moliyaviy tushunchalarni anglash, iqtisodiy vaziyatning dastlabki shartlarini tahlil qilish qobiliyatiga oid bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida belgilash mumkin. Shu asosda ularning oqibatlarini to'liq anglagan holda ongli qarorlar qabul qilish qobiliyati, hozirgi va keljakdagi hayotiy maqsadlar va rejalarini amalga oshirish uchun samarali harakatlarni bajarish va qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyorlikni ifoda etadi.

Aholining moliyaviy savodxonligi va xabardorligi darajasini oshirishning asosiy vazifasi moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning takomillashtirilgan milliy strategiyasini ishlab chiqish va davlat darajasida qabul qilishdan iborat. Ushbu strategiya modulli yondashuvni hisobga olgan holda tuzilishi kerak, bu unga moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tor yo'nالishga ega bo'lgan va aholining turli segmentlari haqidagi bilimlarini oshirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni (davlat yoki jamoatchilikka oid kichik dasturlar va tashabbuslarni) kiritish imkonini beradi.

Moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga yordam beradigan boshqa muhim tadbirlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- fuqarolarning e'tiborini moliyaviy savodxonlik masalasiga jalb qilish va ularning moliyaviy bilimlarini oshirish zarurligini ongiga singdirish;
- moliyaviy savodxonlik bo'yicha malakali mutaxassislar va o'qituvchilarni tayyorlash;

- turli yoshdagi guruhlarning o‘ziga xos idrokini hisobga olgan holda o‘qitish tizimini shakllantirish;
- uy xo‘jaliklari byudjetini rejalashtirish ko‘nikmalaridan boshlab, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga kompleks yondashuvni ta’minlashi kerak bo‘lgan turli ta’lim mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- moliyaviy savodxonlik darajasini muntazam tadqiq etish va monitoring qilish;
- moliyaviy savodxonlikning milliy standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ilg‘or xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda aholining aniq guruhlari uchun maqsadli dasturlarni ishlab chiqish, moliyaviy savodxonlik bo‘yicha veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlarda sahifalar yaratish;
- moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar yetkazib beruvchilarining iste’molchilarga nisbatan ijtimoiy mas’uliyatli xatti-harakatlarini shakllantirish, moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ilgari surish va taqdim etishning shaffof va xolis modellarini yaratish.

Shuni ta’kidlash kerakki, oila farovonligi darajasi aholining moliyaviy savodxonligi darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Shu sababli, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga hissa qo‘sadigan moliyaviy savodxonlikni oshirishning kompleks tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bularning barchasi o‘z huquqlarini, imkoniyatlarini tushunishni kuchaytirishga va shunga mos ravishda shaxsiy farovonlik va davlat iqtisodiyoti uchun oqibatlarini hisobga olgan holda moliyaviy qarorlarni yanada mas’uliyatli qabul qilishga yordam beradi.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:*

Vaxabov A.V., Toshmatov Sh.A. va boshq. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o‘quv qo‘llanma. –T.: Baktria press. 2013. – 288 b.

Maxtimova Z. Moliyaviy savodxonlik fanini o‘qitishning ahamiyati. // “E-journal.uz” electron ilmiy jurnali. – 2021. – № 2. URL: <http://e-journal.uz/2021/05/27/moliyaviy-savodxonlik-fanini-oqitishning-ahamiyati/>

Что такое финансовая грамотность – основы и 5 способов повышения финансовой грамотности [Электронный ресурс]. URL: [kakzarabativat.ru/finansy/finansovaya-gramotnost/](http://kakzarabativat.ru/finansy/finansovaya-gramotnost/)

Манахова И.В. Финансовая грамотность населения – фактор роста национального благосостояния [Электронный ресурс]. URL: [cyberleninka.ru/article/v/finansovaya-gramotnost-naseleniya-faktor-rostanatsionalnogo-blagosostoyaniya](http://cyberleninka.ru/article/v/finansovaya-gramotnost-naseleniya-faktor-rostanatsionalnogo-blagosostoyaniya)

Сербина Т.Н. Финансовая грамотность и ее роль в повышении благосостояния населения [Эл. ресурс]. URL: [scienceforum.ru/2017/article/2017030244](http://scienceforum.ru/2017/article/2017030244)

Повышение финансовой грамотности населения: международный опыт и российская практика: Сборник материалов / А.В. Зеленцова, Е.А. Блискавка, Д.Н. Демидов. – М., 2011. – 108 с.

Критерии финансовой грамотности населения и пути ее повышения. Отчет по результатам исследования [Электронный ресурс] // Национальное агентство финансовых исследований (НАФИ). URL: [moneybasics.ru/files/doc/criteria\\_fin\\_literacy.doc](http://moneybasics.ru/files/doc/criteria_fin_literacy.doc)

Повышение уровня финансовой грамотности – накопление в обществе человеческого потенциала // Экономика мегаполисов и регионов. – 2010. – № 3. – С. 12-21.